

2024 yilda O'zbekistonga kelgan sayyohlar soni ma'lum qilindi



Statistika agentligi ma'lumotlariga [ko'ra](#), O'zbekistonga 2024 yilda jami 8,2 mln nafar chet el fuqarolari turistik maqsadlarda tashrif buyurgan.

Shundan:

- Ayollar – 4 077,1 ming nafar (49,8 foiz)
- Erkaklar – 4 104,3 ming nafar (50,2 foiz)

Ma'lumot uchun 2023 yilda O'zbekistonga 6,6 mln xorijlik sayyoh [kelgandi](#). O'sish 1,8 mln nafarga oshgan.

O'zbekistonga turistik maqsadlarda kelayotganlarning asosiy qismini Tojikiston, Qirg'iziston, Qozog'iston va Rossiya fuqarolari tashkil etgan.